




Muzrabotdagi 10 ta mahallada infratuzilmani yaxshilash tadbirlariga start berildi




Bugun Surxondaryo viloyati hokimi Ulugʻbek Qosimov Muzrabot tumanida boʻlib, ogʻir hudud sifatida tanlab olingan, yoshlar koʻchalari tashkil etiladigan 10 ta mahallada infratuzilmani yaxshilash ishlariga start berish tadbirida ishtirok etdi hamda baliqchilikni rivojlantirish loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.



Xususan, tanlab olingan mahallalarda obodonlashtirish, koʻkalamzorlashtirish, chiqindilarni olib chiqish, ariq va zovurlarni tozalash, yoshlar koʻchalarini namunali tartibda tashkil etish boʻyicha mutasaddilarga vazifalar belgilab berildi. Tadbirga jalb qilingan texnikalar biriktirilgan hududlarda ishni boshladi.

Shundan soʻng, viloyat rahbari tumanning Mexrigiyo mahallasi hududida tashkil etilishi rejalashtirilgan baliqchilik loyihasi taqdimoti bilan tanishdi. Oʻnga yaqin hovuzlarda tashkil etiladigan loyiha doirasida maʼmuriy bino, laboratoriya, baliq sotish doʻkonlari, ozuqa ombori va boshqa obʼektlarni qurish ham koʻzda tutilgan.



Viloyat rahbari loyiha taqdimoti bilan tanishib, hududning mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda loyihani yanada takomillashtirish lozimligini qayd etdi hamda ish oʻrinlari soni va mahsulot yetishtirish hajmini yanada koʻpaytirish mumkinligini

ko'rsatib o'tdi.